

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MANZARA RANGTASVIRINI O'QITISHNING SAMARALI VA INNOVATSION METODLARI

Shohidaoy Bekmuratova Ne'matjonovna

Phd dotsent

Ma'rufova Maxfiratoy Ne'matjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada siz talabalarga manzara rangtasvirini raqamli texnologiyalar orqali o'qitishning samarali va innovatsion usullari, qulayliklari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lasiz. Raqamli texnologiyalar nafaqat talabalar uchun foydali balki o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yanada qulay rejalashtirish uchun hamda dars jarayonini mazmunli samarali qilshda juda ham qo'l keladi.*

Kalit so'zlar: *Inovatsion texnologiyalar, blender, Sketch up, UNity, 3D Grafika, Realistik soyalar, fazoviy chuqurlik, animatsiya, vizualizatsiya*

EFFECTIVE AND INNOVATIVE METHODS OF TEACHING LANDSCAPE PAINTING THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Shohidaoy Bekmuratova Ne'matjonovna

Phd dotsent

Ma'rufova Maxfiratoy Ne'matjon qizi

*Master's Degree Student (Year 1) Fine Arts Program,
Andijan State Pedagogical Institute*

Abstract: *This article provides general information about effective and innovative methods of teaching landscape painting to students through digital technologies, as well as the advantages of these approaches. Digital technologies are beneficial not only for students but also for teachers, as they help educators plan their pedagogical activities more conveniently and make the teaching process more meaningful and effective.*

Keywords: *Innovative technologies, Blender, SketchUp, Unity, 3D graphics, realistic shadows, spatial depth, animation, visualization.*

Hayot tarzimizni yengillashtiradigan inson mehnati, mashaqqatini osonlashtiradigan texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda yashamoqdamiz va ular hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Albatta ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ya'ni inson ongi tafakkuri bilan yaratilgan raqamli texnologiyalar yordamida har bir soha va yo'nalishlarda yangicha yondashuvlar bilan ko'plab yangiliklar yaratib, yangi marralarni zabt etish mumkin. Bunday qulayliklar insonning yanada ko'proq o'rganish, izlanish hissini oshiradi, bu texnologiyalar yordamida biz o'qituvchilar talabalarimizni yanada samarali bilim olishlari,

zamon bilan kelajak bilan hamnafas bo'lib unga hamohang holda o'sishlarini ta'minlamog'imiz darkor. O'sib kelayotgan avlodga bu qulayliklarning yaxshi taraflarini ko'rsatib ulardan to'g'ri va manfaatli usulda foydalanish instinktini rivojlantirishimiz kerak. Chunki talabalar texnologiyalardan foydalanishni bilishadi bunga nisbatan ularda qiziqish yuqori, shu qiziqish bilan fanlarni o'rganishni, o'qishni birlashtirsak juda ham samarali natijalar bo'ladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida manzara rang tasvirini o'qitishning eng samarali va innovatsion usullari mavjud. Ular san'at ta'limida ko'rgazmalilikni kuchaytiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi va amaliy ko'nikmalarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtiradi. Ko'plab qulayliklar yaratadi.

Manzara o'zi nima va u qanday janr ekanligini bilsak shunga qarab o'qitish, o'rgatish tizimida turli metodikalardan hamda yangicha inovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. Bilamizki manzara (landshaft) -tasviriy san'atning asosiy janrlaridan biri bo'lib, unda tabiat ko'rinishlari, atrof-muhit, qishloq yoki shahar manzaralari tasvirlanadi. Tasviriy san'at darslarini olib borish mobaynida eng qulay va yaxshi natija beradigan usuli 3D landschaft modellaridan foydalanishdir. Bular Blender, Sketch up yoki UNity orqali landschaftning hajmli ko'rinishini yaratishdir. Blender- bepul ochiq kodli 3D Grafika, animatsiya va model yaratish dasturi. Bu dasturlar yordamida 3D shakllar yasash (modellashtirish), obyektlarga material, tekstura qo'yish, animatsiya yaratish, simulyatsiyalar (suv, olov, suzish, kabi tabiat hodisalari), rendlash va boshqa ko'p narsalar qilish mumkin. Qisqa qilib aytganda blender 3 o'lchamli (3D) dunyo yaratish va unda harakatlar bajarish uchun foydalaniladi. Sketch Up esa arxitektura, interyer dizayni, qurulish loyihalari, mebel dizayni, modelning 3D vizualizatsiyasida ishlatiladi. Qulay tarafi bu raqamli texnologiyalar orqali talabalar yorug'likning manzaraga ta'siri, perspektiva va ranglar uyg'unligini 3D muhitda kuzatadilar hamda Realistik soyalar va fazoviy chuqurlikni tushunish osonlashadi. Bundan tashqari Oculus yoki Google VR yordamida tabiat manzaralarini jonli ko'rish hamda turli kun vaqtlarida yorug'likning rangga ta'siri tajribadan o'tkaziladi. Ya'ni qanday vaqt va holatdan qat'iy nazar biz o'zimiz ko'rishni hohlagan kun vaqtimizni yoki qaysi faslda bo'lishimizdan qat'iy nazar o'zimiz istagan faslni hohlagan usulimizda ko'rib tajriba qilishimiz, chizishimiz mumkin

Isaak Levitan aytganidek "Manzara- tabiatning kayfiyatidir". Manzara o'zining yorqin ranglari bilan go'zal, har bitta element o'zining holati ko'rinishi va jilvakor ranglari bilan manzarani boyitadi. Shu sababli manzaraning, butun bir tasviriy san'atning asosi bu ranglardir. Hozirgi vaqtga kelib raqamli texnologiyalarning ham shunday ranglar bilan ishlaydigan ko'plab turlari mavjud. Raqamli bo'yash dasturlari bilan integratsiya ham bularga misol bo'ladi. Masalan: Procreate, Adobe Fresco, Krita va boshqalar. Bu ilovalar rang paletka bilan ishlash, qatlamlarda (layers) manzara qurish, broshlarni (cho'tka effektlarini) sinab ko'rish imkonini beradi. Misol uchun bugun talabalar bilan ochiq tabiat qo'ynida manzara ishlash mavzusi berilgan lekin yomgir yog'ayotganligi tufayli tashqariga chiqa olmadik va bir manzarani elektron doskada katta formatda turli tomonlardan ko'rinishini ko'rib o'rganib chiqdik hamda kompyuterda dasturlardan foydalanib o'sha manzarani yaratdik. Bunda biz

darsga yangicha yondashdik va uni samarali qildik. O'quvchilarimizga o'sha tabiat manzarasini his ettira oldik. Bu biz uchun manzara rangtasvirlarini o'qitishdagi eng kata qulaylikdir.

Ko'rib turibmizki bizga ma'lum bo'lgan shu bir nechta raqamli texnologiyalar tasviriy san'at darslarimizni yanada oson, qulay va qiziqarli bo'lishida yordam bermoqda. Aynan bular biz bilganlarimiz holos bulardan tashqari yana bir necha shunday dasturlar bor va yana yangi qulayliklarga ega bo'lgan shunday foydali dasturlar yaratilmoqda. Bularni dars jarayonlarida qo'llash orqali talabalarda darsga bo'lgan etibori va qiziqishini yanada oshirib, ularda yangi g'oyalar uyg'otib, aynan ular yana shunday yoki bundanda yaxshiroq dasturlar yaratishlariga sababchi bo'lishimiz mumkin

Xulosa

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki raqamli texnologiyalar manzara rang tasvirini o'qitishda avvalo ko'rgazmalilikni kuchaytiradi, texnik ko'nikmalarni zamonaviy vositalar bilan hamohang uyg'unlashtiradi, ijodkorlikni oshiradi, kengaytiradi hamda o'quv jarayonini samarali, qiziqarli va moslashuvchan qiladi. talabalarning etibori oson jalb etiladi. O'qituvchi va talaba uchun ham tushuntirish va tushunish jarayonini har qanday vaziyatda qulay, samarali bo'lishiga yordam beradi. Yangiliklar yaratish va ijodiy mahoratni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar: / References:

1. https://cyberleninka.ru/viewer_images/20407232/f/1.png
2. INNOVATSION METODLARI (5–7-SINFLAR MISOLIDA) Aslonov Furqat Botirovich
3. <https://infocom.uz/news/raqamli-talim-texnologiyalari-va-ularning-samaradorligi>
4. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00114/114_i_20251028_171403_1.29.pdf
5. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi. "Raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar". Tashkent 2019